


TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Zakirova Madina Shavkat qizi

O'zbekiston jahon tillar universiteti

Ingliz tilini o'qitish metodikasi
va ta'lif texnologiyalar kafedrasi

Stajor o'qituvchi

Annotation. Hozirgi kunda ta'lif innovatsion texnologiyalardan foydalanish shart va zarur bo'lib qolgan. Ushbu maqolada dars jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning foydali tomonlari, o'quvchilarning ta'limga yondashuvi, innovatsion texnologiyalardan foydalanganda o'quvchilarning bilim olishiga ta'siri o'r ganiladi.

Kalit so'z. Ta'lif, innovatsion texnologiyalar, interfaol metod, interaktiv , nyuans, dars jarayoni, o'qitish metodlari.

Аннотация. В настоящее время использование инновационных технологий в образовании стало обязательным и необходимым. В данной статье рассматриваются преимущества использования инновационных технологий на уроке, подход учащихся к образованию, а также влияние использования инновационных технологий на обучение учащихся.

Ключевое слово. Образование, инновационные технологии, интерактивный метод, интерактив, нюанс, учебный процесс, методы обучения.

Abstract. Nowadays, the use of innovative technologies in education has become mandatory and necessary. This article examines the benefits of using innovative technologies during the lesson, students' approach to education, and the impact of using innovative technologies on students' learning.

Key word. Education, innovative technologies, interactive method, interactive, nuance, teaching process, teaching methods.

Kirish. Dunyo bo'y lab rivojlanish jadallik bilan o'sib borayotgan hozirgi kunda, ta'lifda ham texnologik jihatdan o'zgarishlarni talab qilmoqda. O'zgarishlar

o'qituvchilarga Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish orqali o'qitish va ta'lif amaliyotiga texnologiya qo'llab-quvvatlanadigan materiallarni integratsiya qilish uchun keng imkoniyatlar ochdi. Ta'lif amaliyotiga innovatsion texnologiyalarni olib kirish, o'quvchilarning darsga yondashuvini o'garishiga, bilim darajasini oshirishga, o'qituvchilarga darj jarayonini oson va qiziqarli tashkil etishga yordam berdi. Innovatsion texnologiyalar orqali dars o'tilganda o'quvchilarda tasavvur qilish qobiliyati o'sadi, tez fikrlash va tez harakat qilishga o'rGANADI.

Innovatsiya yangilik kiritish deganidir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar bu jamoa bo'lib fikrlash hisoblanadi, yani pedagog o'quvchilarga ta'sir etishda ta'sit etish usuli hisoblanadi. Interaktiv metodlarda pedagog va o'qituvchilar birgalikda faoliyat ko'rsatadi, o'quvchilar shunchaki tinglovchi emas, ishtirokchiga aylanadi, hech qaysi o'quvchi darsdan chetda qolmaydi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchining dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;
- o'quvchilarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini taminlashi;
- o'quvchining bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;
- pedagog va o'quvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

O'qitish va o'qitish jarayonida texnologiya va innovatsion integratsiya turli xil vositalar orqali o'rganishni osonlashtirish, o'quvchilarga yo'naltirilgan ta'lif uchun imkoniyatlar yaratish, o'quvchilarni jalb qilish va farqlash va o'rganish afzalliklarini ta'minlash uchun texnologiyalarni qo'llashni anglatadi (Fullan, 2011; Ertmer va boshq., 2012). Texnologiyadan o'qitishda foydalanish darsni rejalashtirish, ma'ruza taqdimoti, yozib olish, tadqiqot va tengdoshlar o'rtasidagi hamkorlik (Bebell va boshqalar, 2004) kabi faoliyatni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, texnologiyadan o'quv vositasi sifatida

foydalanish o'qituvchilardan farqli o'laroq, o'quvchilarni o'quv jarayonining markaziga qo'yadi, shu bilan birga ijtimoiy o'zaro ta'sirlarga, turli sohalardagi aloqalarga e'tibor qaratadi.

Olib borilgan tadqiqotlardan ko'rishimiz mumkinki, o'qitish texnologiyalarini integratsiyasi natijasida o'quvchilarning qobiliyatini rivojlantirish, yetkachilikni qo'llab-quvvatlash rivojlandi. Innovatsion ta'lim va ta'lim texnologiyalarining integratsiyasi: taqdimot texnologiyalaridan foydalanish, baholash va fikr bildirish, ma'lumotlarga kirish va almashishdan iborat.

Xulosha. Jamiyatdagi har bir soha bir-bir bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Jamiyat rivoji uchun ta'lim sohasini rivojlanishi juda katta ahamiyatga ega. Ta'lim sohasida innovatsion texnologiyalardan foydalanish, o'quvchilarni o'qitishda interaktiv metodlarni joriy etish orqali jamiyatga yetuk bilimli kadrlar yetkazib berish mumkin. Buni ko'plab davlatlar tajribasidan ko'rishimiz mumkin. Xususan O'zbekistonda ham o'quvchilarning bilim darajasi, liderlik hususiyatlari rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin. Shu sababli ham hozirgi kunda ta'lim sohasiga juda kata e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim sohasiga yana yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali biz qo'yilgan maqsadlarga yanada tezroq erishishimiz mumkin.

References.

1. Ishmuxamedov R.J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yullari. T.: TDPU, 2004.
2. Yunusovna, S. Z. The Role of the Conversational Implicative in Linguopragmatics on the Basis of Formal and Informal Letters. TDO'TAU, 2022
3. Sayibova Z. Y. Innovatsion texnologiyalarning ta'lim sohasidagi o'rni . Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2023
4. Elizabeth Landaa , Chang Zhua , Jennifer Sesabo. Readiness for integration of innovative teaching and learning technologies: An analysis of meso-micro variables in Tanzanian higher education. International Journal of Educational Research Open. 2023